



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

**O‘ZBEKISTONDA OLIB BORILAYOTGAN IJTIMOIIY-SIYOSIIY
ISLOHOTLAR: BOZOR TRANSFORMATSIYASI TAJRIBASI VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

Sadullayeva Matluba Abirqul qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ijtimoiy ish ta’lim
yo’nalishi 1-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Xaydarova Xilola Xislatovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti assistenti

Annotasiya

Ushbu maqolada O‘zbekistondagi islohotlar keng yoritiladi. Konstitutsiyaviy islohotlar, xotin-qizlarni huquqlarini himoya qilish haqidagi qonuniy islohotlar, sog‘likni saqlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritiladi. Bunda aholining hayoti qay darajada o‘zgarayotgani haqida ularning hayotiy farovonligi yaxshilanayotgani haqida ham so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiy islohotlar, qonunlar, oila, xotin-qizlar huquqlari, sog‘likni saqlash tizimi, ta’lim, yangi ish usullari, ijtimoiy dasturlar.

Аннотация

В статье представлен широкий обзор реформ в Узбекистане. В ней рассматриваются конституционные реформы, правовые реформы, направленные на защиту прав женщин, и текущие реформы в сфере здравоохранения. Также рассматривается, насколько меняется жизнь населения и повышается его благосостояние.

Ключевые слова: Социальные реформы, законы, семья, права женщин, система здравоохранения, образование, новые формы работы, социальные программы.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

Abstract

This article provides a broad overview of reforms in Uzbekistan. It examines constitutional reforms, legal reforms aimed at protecting women's rights, and ongoing healthcare reforms. It also examines how the population's lives are changing and their well-being is improving.

Keywords: Social reforms, laws, family, women's rights, healthcare system, education, new forms of work, social programs.

"Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas". Mazkur ibora paydo bo'lganidan buyon ming yillar o'tdi. Bu butun koinot tabiat va bashariyat doimiy o'zgarishda deganidir [2, 5b].

Bugun O'zbekistonimiz ijtimoiy islohotlar yuritish bo'yicha yangi qadam qo'ydi. Oldimizda yangi o'zgarishlarni amalga oshirilayotgani, eng muhimi raqobatbardosh va tashqi dunyo uchun ochiq ijtimoiy iqtisodiy makonni barpo etishga sobitqadamlik bilan kirishilgan. Barchamizga ayonki islohot - yangilanish va o'zgarish ishlarning natijadorligi uchun ma'suliyatni yanada teranroq his qilish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun avvalo boshqaruv tizimi, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Insonning dunyoqarashi o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi yangilanadi va shu asnoda yangi O'zbekiston poydevori mustahkamlanadi [2, 81b]. Konstitutsiyaviy islohotlarda shuni takidlash joizki 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi buning yaqqol namoyonidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob 46- moddasida har kim qariganda mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikka, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yilgan [1]. Bu esa davlatimizning inson manfaatlari hamda uning himoyasini nazarda tutgan eng odilona ijtimoiy siyosatidan biridir.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

Qonunlarda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan. Eng kam iste'mol xarajatlardan oz bo'lishi mumkin emas [1, 91b].

Bugungi kunga kelib ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobarga oshdi. Ushbu toifani qo'llab quvvatlash va iqtisodiyotimizni tiklash uchun davlat byudjetidan nihoyatda katta mablag' ajratiladi [2,191b].

Vazirlar mahkamasi qarori bilan 15- oktabrdan 2023-yil parvarishga muhtoj bo'lgan shaxslar bir yilda kamida bir marotaba chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Shuningdek muhtoj aholi murojaatlarini ko'rib chiqadigan "ishonch telefoni" ishga tushirildi.

2023-yil 14-oktabr kuni "Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini taminlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora tadbirlar terisida"gi 539-sonli Hukumat qarori qabul qilindi [2;6].

Ijtimoiy xodimlarga fuqarolardan kam taminlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash bo'yicha arizalarni qabul qilish vakolati berildi. Bu olib borilayotgan qonuniy islohotlardan maqsad odamlar hayotini yanada yaxshilash, ularga sifatli xizmat ko'rsatishdir. Bu islohotlar odamlar hayotini yanada farovonlashtirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy – siyosiy islohotlarni izchil olib boorish dasturlarida oilalarni mustahkamlashga ham alohida e'tibor qaratilgan. Zero, oila jamiyatning bir bo'g'inidir. Oilaga qaratilgan davlatimizning ijtimoiy siyosati xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularga qilinayotgan oilaviy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, turmush o'rtog'ini tahqirlash, qo'rqitish kabi oqibatlarining oldini olish kabi masalalarni qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasida 2021-2022-yillar oralig'ida xotin qizlarning huquqlari buzilishiga doir 61 mingdan ziyod arizalar tushgan. Jamoatchi faollariga ko'ra, jabrlanuvchilar aslida millionlarni tashkil etsa ajabmas. Qabul qilingan qonunlarimizning natijasi o'laroq endi er yoki xotin o'z turmush o'rtog'ini tahqirlasa, qo'rqitsa, yaqinlaridan ajratib qo'ysa ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi. Turmush o'rtog'ini haqoratlasa 6 million so'm jarimaga tortiladi, kaltaklasa, kir tan jarohatini yetkazsa 12 yilga ozodlikdan mahrum qilinadi. Bu olib borilayotgan qonuniy islohotlar xotin qizlarni huquqiy qo'llab quvvatlashdir. Zero, barcha xotin- qizlar davlat himoyasidadir.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

Barcha tuman va shaharlarida hamda har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha mutlaqo yangi ish usullarini - "Temir daftar" tizimi joriy etildi. 2017-2021 yillar davomida mamlakatimizda 140 mingta uy-joy barpo etildi. Fuqarolarning ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta'minlashning noyob tizimi yaratildi. "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Yoshlar kelajagimiz", "Besh muhim tashabbus" kabi 10 dan ortiq davlat ijtimoiy dasturlari va kontseptsiyalari amalga oshirilmoqda[3, 52b].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha imzolagan qonunlari ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi, zero, ushbu qonunlar, unda belgilangan jazolar insonlar tinchligini, hotirjamligini ta'minlaydi. Agar oila tinch bo'lsa, unda ona ham jamiyatga foydasi tegadigan yetuk insonni tarbiyalay oladi.

Bugungi kunda yurtimizda sog'liqni saqlash tizimida ko'zga ko'rinarli darajada islohotlar olib borilmoqda. Bundan asosiy maqsad esa insonlar hayotini yaxshilash ularga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishdir. Xususan, mamlakatimizda oxirgi yillarda sohaga ajratilayotgan mablag'lar hajmi keskin oshirildi. 2022 yilda sohaga budjetdan 24 trilion so'm yoki 2016 yilga nisbatan 4 barobar ko'p mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, unga qo'shimcha yana 3,5 trillion berilishi belgilandi. Shu davr davomida shifoxonalar va tez tibbiy yordam punktlarini dori darmon, tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashga ajratilayotgan mablag'lar 12 barobarga ko'paytirildi. Sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash uchun xalqaro moliya tashkilotlardan 700 million dollardan ziyod mablag'lar hisobiga soliqni saqlash tizimi muassalari moddiy texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va bunday xizmatlardan foydalanish qulayligi oshib bormoqda. Tibbiyotning aholiga eng yaqin bo'lgan muassasalari- oilaviy poliklinikalarni yangi zamonaviy UTT va EKG aparatlari bilan ta'minlash orqali qishloq va mahallalarda 8 turdagi yangi tibbiy xizmatlar yo'lga qo'yildi va birlamchi tibbiy xizmatlar ko'lamini kengaytdi. 2021-yildan boshlab aholi ehtiyojidan kelib chiqib oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar tashkil etish ishlari boshlangan bo'lib, ularning tashkil etilishi fuqarolarning uzoqni yaqin qilib, birlamchi tibbiy xizmatdan foydalanish qulayligini yanada oshirmoqda.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

Xalqimiz kutgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning eng muhimlaridan yana biri bu ta'lim sohasidagi islohotlardir. Har bir davlat ta'lim sohasiga e'tibor beradigan bo'lsa, avvalo uning o'sib kelayotgan yoshlari ilmi, salohiyatli bo'lib yetishadi hamda dunyodagi keskin globallashuv davrida o'z yo'llarini qo'qmay, sarosimaga tushmagan holda topa olishadi. Ilmi insonlarga to'la bo'lgan davlat hech qachon qashshoq davlat bo'lmaydi va aksincha yuksalaveradi.

O'zbekistonda so'ngi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib boorish, sifatli ta'lim va tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar uchun davlat budjetdan xarajatlar so'ngi 6 yilda 4,3 baravarga oshirildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2016-yildagi 5211 tadan 2021 yilga kelib 19 316 taga, maktablar soni 9719 tadan 10 289 taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktub o'qtuvchilarning ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi [7]. Ta'lim sohasi vakillarining oylik maoshi 4 barovarga oshirildi. OTM soni 70 tadan 191 taga yetkazildi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning ikki pog'onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doktor or Science) tizimi joriy etildi. Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026 - yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTtlarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rnini yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobiy amaliyotni 2023/2024 o'quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko'zda tutildi[4;5]. Shuningdek, Oliy ta'limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat OTMlar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi. Shuni aytish joizki bu yil ijtimoiy xodim kasbi mutaxassislari kamligi tufayli OTM larda ijtimoiy ish yo'nalishiga qabul qilinadigan abituriyentlarga kvotalar soni oshirildi. Umuman olganda ta'lim islohotlari inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, bilimli va vatanparvar shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shu bois islohotlarni izchil davom ettirish jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-siyosiy islohotlar mamlakat taraqqiyoti, jamiyat hayotining yangilanishi va xalq farovonligi ta‘minlash yo‘lida muhim burilish nuqtasiga aylandi. Bu islohotlar markazida inson manfaatlari turibdi. "Inson qadri uchun" tamoyili mamlakat siyosatining bosh mezoniga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida olib borilayotgan ijtimoiy- siyosiy islohotlar xalq bilan ochiq muloqot, adolat, qonun ustuvorligi va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan. Shuningdek so‘ngi yillarda ijtimoiy himoya tizimi, soliqni saqlash, ta‘lim, uy-joy siyosati sohalarida keng islohotlar amalga oshirildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu ijtimoiy siyosiy islohotlar mamlakatni zamonaviy, adolatli va farovon jamiyat sari yetaklayotgan strategik yo‘ldir. Bu islohotlar O‘zbekistonning xalqaro maydonda nufuzini tobora oshiradi. Eng muhimi bu o‘zgarishlar xalq manfaatlari yo‘lida kelajak avlod uchun barqaror va qulay ijtimoiy muhit yaratish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Toshkent - 2023.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent -2023.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent 2021.
4. <https://www.amerikaovozi.com>.
5. <https://www.strategy.uz>
6. <https://www.lex.uz>.
7. <https://www.parliament.gov.uz>.